



LITERARY INFLUENCE, ARTISTIC STYLE, SKILLS: FRANZ KAFKA AND NAZAR ESHONQUL

Nilufar Cho‘liyeva

(Phd), Doctoral Assistant Professor, the National University of
Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In the article, the issues of literary influence, creative style and skill are covered by the analysis of the works of world writers Dostoyevsky, Camus and, mainly, Franz Kafka and Nazar Eshonqul. In the works of the above-mentioned famous writers, special emphasis is placed on how the relationship between man and existence, individual and society is described. The characters of the novel, Raskolnikov, Meursault, Joseph K., and N., are compared and analyzed in terms of their similarities, commonalities, and differences. The main idea of existentialism and absurd literature, which ensures the originality of the art of novels - that a person is the creator of his own life, is described on the example of various views and images. The motif of metamorphosis in Kafka's "Metamorphosis" and N. Eshonqul's "Bahovuddin's Dog" and its role in expressing the author's ideas are also analyzed. The relationship between artistic space and time in these stories is also explored. Relevant results were obtained about Kafka's time-space, forms of time-space in N. Eshonqul's story, tasks, and its importance in revealing the character of the hero.

Key words: artistic style, creative skill, literary influence, image, character, absurd, ekzistentialism, artistic space, artistic time, symbol, metaphor, metamorphosis.

ADABIY TA'SIR, BADIY USLUB, MAHORAT: FRANS KAFKA VA NAZAR ESHONQUL

Cho'liyeva Nilufar

O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti dotsenti, (Phd)

Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta'sir, ijodkor uslubi va mahorati masalalari jahon yozuvchilari Dostoyevskiy, Kamyu va, asosan, Frans Kafka va Nazar Eshonqul asarlari tahlili misolida yoritilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan taniqli adiblarning asarlarida inson va borliq, shaxs va jamiyat munosabatlarining qay tarzda tasvirlanishiga alohida urg'u berilgan. Asar qahramonlari bo'lgan Raskolnikov, Merso, Yozef K. va N. qismatining o'xshash, umumiy va farqli jihatlari qiyosiy tahlil etilgan. Romanlar badiiyatining o'ziga xosligini ta'minlagan ekzistensializm va absurd adabiyotining bosh g'oyasi – inson o'z hayotining yaratuvchisi ekani turfa qarashlar, turli obrazlar misolida tasvirlab berilgan. Shuningdek, Kafkaning “Evrilish”, N. Eshonqulning “Bahovuddinning iti” hikoyalardagi metamorfoza motivi va uning asar badiiyati, muallif g'oyalarini ifodalashdagi o'rni tahlil etilgan. Mazkur hikoyalardagi badiiy makon va zamon munosabati ham tadqiq etilgan. Kafkaga xos zamon-makon, N. Eshonqulga hikoyasidagi zamon-makon shakllari, vazifalari, qahramon xarakterini ochib berishdagi ahamiyati haqida tegishli natijalar olingan.

Kalit so'zlar: badiiy uslub, ijodkor mahorati, adabiy ta'sir, obraz, xarakter, absurd, ekzistensializm, badiiy makon, badiiy zamon, ramz, metafora, metamorfoza.

Kirish. Badiiy adabiyotning ta'siri, avvalo, ijodkorlararo kechadigan muhim adabiy hodisa sanaladi. Bu jarayonni adabiy uvayslik an'anasi desa ham bo'ladi, nazarimizda. Chunki bir ijodkor o'zi ta'sirlangan boshqa bir shoir-yozuvchi realda ko'rmay, suhbat qilmay turib ham uning asarlaridan ta'sirlanishi mumkin. Undan

ilhom olishi mumkin. Ana shundan so'ng bu ta'sirlanishning natijasi ijodkor yuragi, iste'dodi, mehnati orqali kitobxon qalbiga kirib boradi. Sharq va G'arb adabiyoti namoyondalarining ijodi doim bir-biridan oziqlangan, quvvat olgan. Shu jihatdan badiiy adabiyot butun insoniyat obrazli tafakkurining hosilasi va tadriji jamlanmasi deyish mumkin.

Biz quyida tahlil etmoqchi bo'lgan adiblar Frans Kafka va Nazar Eshonqul asarlarida ham adabiy ta'sir kuchi seziladi. Har ikkala yozuvchi ham adabiyotda o'z uslubi va yo'liga ega ijodkorlar. Shuningdek, ular ijodini birlashtirib turuvchi mustahkam badiiy jihatlar ham talay. Jumladan, ekzistensial asarlar bu ikki yozuvchining ijod dunyosini tutashtirib turuvchi ko'prikdir. Ekzistensializm har bir inson o'z hayoti ma'nosini o'zi yaratadi, qabilidagi falsafiy tushunchaning adabiyotdagi in'ikosi o'laroq maydonga keldi. Bu oqimiga xos asarlarning bosh me'zoni inson va borliq munosabatlarini tushunishga, insonga javobi noma'lum bo'lgan savollarga yechim qidirishga qaratilgan. Kafka va Nazar Eshonqul asarlarining bosh g'oyasi ham aynan shu fikrlardan tashkil topgan.

Asosiy qism. Frans Kafka asarlari insonni shiddatli vaziyatlarda tasvirlashga, shu orqali insonning asl qiyofasini ko'rsatishga harakat qiladi. "Jarayon" romani qahramoni Yozef K.ga yuklangan adabiy missiya ham shundan iborat. Kafka uchun insonni shavqatsiz ijtimoiy muhit, adolatsiz jamiyat oqimida tasvirlash muhim. Shuning uchun ham u romanda hayot aslida qanday bo'lishi kerak ya'ni haqiqiy ozodlik, erkin hayot qanday bo'lishi kerak degan savollarga javob izlaydi. "Romandagi asosiy voqealarning aksariyati tongda, uyqu va haqiqat, real va noreal, hayot va o'lim chegarasida sodir bo'ladi" [11] Romanda borliq va inson, shaxs va jamiyat binar munosabatlarining oppozitsional tahlili, ayniqsa, sud jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni shu o'rinda Kafkaga Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanining ta'sir etganini sezish mumkin: "Sarlavhaning o'zi - "Jinoyat va jazo" - "Jarayon" juda mos keladi. Jozef K. xuddi Raskolnikov singari, hibsga olinmasdan qamoqqa olish holatiga tushib qoladi. Faqat Dostoyevskiyning o'z aybidan qiynalgan qahramoni o'zini qo'yarga joy topolmaydi, Kafka qahramoni esa o'z aybini bilmay, adolatsizlikdan azob chekadi va buni yengishga harakat qiladi" [11] "Jarayon"

voqealari uchun tanlangan shahar Praga ham xuddi “Jinoyat va jazoda”gi Peterburg singari tumanli, rangsiz, qashshoq va biqiq shahar sifatida taassurot qoldiradi. Dostoyevskiy va Kafkani ham tutashtirib turuvchi absurd muhit va kayfiyat davr ziddiyatlari haqida ham muayyan xulosalar beradi. Dostoyevskiy Raskolnikovni vijdon azobiga mahkum etsa, Kafka Yozef K.ni jamiyat qurboni sifatida ojiz qoldiradi. Shu o’rinda, ko’z o’ngimizda yana bir, uchinchi xil qahramon gavdalanadi: “Begona” romanining “Merso”si. Kamyu romanida ham xuddi shunday sud jarayoni tasviri bor. Ammo Kamyuning Mersosi yuqoridagi ikki qahramondan tubdan farq qiladi. Merso uchun hayotiy asl qadriyatning o’zi yo’q. U faqat o’tkinchi nafsning quli, xolos. Kamyu insoniy fazilatlardan yiroq kimsaning jamiyat uchun ma’naviy-ijtimoiy jihatdan nechog’lik begonaga aylanib qolishini mahorat bilan tasvirlaydi. U sud jarayonida ham hayot voqeligini to’la anglab yetmagan, loqayd, xudbin bir odam sifatida gavdalanadi. Ko’ringanidek, uchala asardagi sud va jazo tasviri uch xil obrazning xarakter xususiyatlarini yoritishda asosiy ochqich vazifasini bajargan.

Nazar Eshonqulning “Go’ro’g’li yoxud hayot suvi” romani qahramoni N. ham jirkanch va adolatsiz tuzum, uning huquqiy shakli bo’lgan sud tomonidan ruhan o’limga mahkum etiladi. N. dastavval o’zining tirik ekanini isbotlashga ko’p bora harakat qiladi, ammo barchasi zoye ketadi. Eng dahshatlisi N.ning biror aybi haqida asarda hech qanday fikr yo’q. U shunchaki o’lganga chiqariladi, xolos. Eng dahshatlisi ham inson uchun shu: nega “o’lim”ga hukm qilganing-u, o’lmay turib jasadga aylanganing! N.Eshonqul ijodining asosiy g’oyaviy-hissiy jihatlaridan biri ham o’lik jamiyatning ichidagi tiriklarni ham “o’lik”ka aylantirishini yoki aylanishini ramziy tasvirlash. Asarda hatto qahramon o’zi bexabar holda o’ziga go’r qaziydi. U sud xodimining buyrug’iga ko’ra o’zining o’rniga adashib ko’milgan jasadni qabridan kovlab olib, o’lgan odam N. emas, boshqa ekanini isbotlamoqchi bo’ladi. Ammo bu qabrda hech kim yo’qligini, hatto bu qabrning o’rni ham emas, aslida u o’zi uchun yangi go’r qaziyotganini go’rkovdan eshitgach butkul o’limga yuz tutadi. Eng so’nggi umid sha’mi ham so’nadi. Shundan so’ng u butunlay yolg’izlanib, o’z qobig’ida (tanasida emas!) yashay boshlaydi: “Itlar uvlar ekan, N.

o‘zining ichida ham nimadir uvlab yuborayotganini sezib qolardi. Endi u itlarning uvlashini qo‘msab chiqar, o‘zi bilan itlar orasida qandaydir bog‘lanish paydo bo‘lganini sezardi. Bu bog‘lanish uning zavolga yuz tutgan hayotiga shunchalik joziba bag‘ishlardiki, endi u bir paytlardagi kabi o‘z taqdirining adolatli hal qilinishini emas, itlarning uvlashini kutib yashardi. ...itlar uvlashi bilan uning vujudi qizib, tanasi olov bo‘lar, yuragida yovvoyi bir shavq uyg‘onar, ichida hamma narsani tilka-pora qilish, badbo‘y hidlardan mast bo‘lish istagi uyg‘onar, ba‘zi kechalari u bu istak oldida ojiz qolib tanasini tishlab tashlar, yelkalaridan oqayotgan qonni ko‘rib, battar quturib ketar va bo‘g‘zidan xo‘rlik kabi yovvoyi bir uvlash otilib chiqardi. N. itlarga qo‘shilib, asta-sekin uvlashni o‘rgandi” [9. 37-38]. Mazkur parchadan jamiyat go‘yo chiqitga chiqargan inson fojiasining qiyofasi, ruhiy-jismoniy evrilishi ayanchli, shavqatsiz ekani ko‘rinadi. Ayni mana shu mazmuniy ifoda - jamiyatda insonning keraksiz, jirkanch va ojiz, unutilishga mahkum bir jondorga aylanib qolish dahshatini Kafkaning “Evrilish” hikoyasida ham ko‘rish mumkin.

Kafka asari qahramoni Gregor Zamzaning noma‘lum, yirik hasharotga aylanib qolishi va bu holatning u tomonidan tezda qabul qilinishi absurd adabiyoti xususiyatlardan biridir. Gregor Zamzaning hasharotga do‘nishi uning jismoniy – oilani moliyaviy tanqislikdan olib chiquvchi ishchi kuchi sifatida keraksiz vujudga aylanganini ko‘rsatadi. Avval boshda bu holatdan qo‘rqib ketgan ota-onasi, singlisi, so‘ngra undan jirkanib, nafratlanishni boshlashadi. Gregorning hasharotga xos zaifligi, instinktlari uni yanada yolg‘izlatadi. Kafka metamorfozasi jamiyatda qanday qilib insonning o‘zgarib qolishi va uning o‘z yaqinlari tomonidan go‘yo bir jirkanch hasharotdek unutilishi, va hatto, tugab, chiqitga chiqishi mumkinligini badiiy ko‘rsatib beradi. Hikoyadagi metamorfoza go‘yo bo‘lishi muqarrar hodisa kabi tabiiy yuz beradi. Bu jarayonning yuz berishi qanday kechgani, qancha vaqt oralig‘ida ro‘y bergani ma‘lum emas, bu matnda izohlanmaydi. Zamza oilasi yashaydigan uy va bir xona (Gregorning xonasi)da kechadigan voqealar nafaqat shu mikromakonda, balki butun bir jamiyatda - makromakonda yuz berayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Albatta, bu anglanish hikoyaning g‘oyaviy mazmun qamrovini

belgilaydi. Hikoya voqealari badiiy zamonning ikki xil sur'atida kechadi. Zamxa xonadonidagi yashash tarzi, garchi moddiy qiyinchiliklar ortsa-da bir maromda oqayotgan badiiy vaqt silsilasida davom etadi. Gregor uchun esa vaqt to'xtab qolgandek edi. Uning xonasida vaqt juda sekinlashadi: "Gregor ota-onasini o'ylab kunduz kunlari derazaga tirmashmasdi. Ammo bu katakday xona polida hadeb sudralaverish uning joniga tegdi. Kechayu kunduz qimirlamay yotish undan battar. Hatto ovqat ham unga yoqmay qolgan edi" [8]. Ko'ringanidek, Gregor bilan bog'liq hatti-harakatlar badiiy vaqt tezligini "o'ldiradi". Chunki u uchun metamorfozaik holat anglash vaqti. Ayni qahramon bilan bog'liq tasvirlarda asarning ijtimoiy-psixologik qamrovi kengayadi. Chunki Kafka badiiy olamiga xos avtobiografik chizgilar hikoyaga ham ko'chadi: badjahl ota, yaqinlarining mehriga, e'tiboriga tashnalik Gregorni oxir-oqibat o'ldiradi.

Kafka asarida syujet metamorfoza bilan boshlanib, bu evrilish qahramonning asliga qaytishi bilan emas, balki shu holatda o'lim topishi bilan yakunlanadi. Gregor metamorfozasi makoniy xoslikni ham tanlaydi. Ya'ni u chinakam hasharot kabi karavot ostiga yashirinadi, xona devorlari va shifti bo'ylab o'rimalaydi. Bu makoniy chegara qahramonning ijtimoiy belgilari: begonalik, ruhiy tanazzul, sotsial munosabatlarning cheklanganligini ifodalaydi. Kafka qahramoni jamiyat uchun begona va bema'nilikdan ma'no axtarayotgan inson obrazidir.

Nazar Eshonqulning "Bahovuddinining iti" hikoyasi syujetida esa metamorfoza asar so'ngida sodir bo'ladi. Hikoyada rejissorning itga aylanib qolishi muallif uslubiga xos ramziy-timsoliy tasvir. Bu to'g'rida adabiyotshunos olim B.Jovliyev shunday yozadi: "Qahramon "it"ning tovushi bilan o'zining kibridan voz kechadi, oddiy insoniylik qiyofasiga – ilohiy maqomga qaytadi. Vafo, sadoqat, faqirlik, komillik mumtoz adabiyotda ma'naviy yetuklik timsoli sifatida sharhlanadi. Bu fazilatlardan uzoq yashayotgan zamonaviy kasb egasi bo'lmish rejissor tashlandiq bog'ga qaytgach, bu yerda "it" qiyofasidagi o'zligiga duch keladi. O'zligi bilan uchrashgan qahramon faqir va gadoy bo'lsa ham bir umr o'zligi bilan qolishni ma'qul ko'radi" [5:90].

Adabiyotshunos olim U.Jo‘raqulovning fikricha mazkur hikoyadagi it obrazi alohida metaforik obraz: “Birinci hikoyadagi Devona ham (Nurulloh Muhammadning “Etakdagi kulba” asari nazarda tutilyapti – N.Ch.), ikkinchi hikoyadagi it ham yagona shaxs, demakki, jamiyat osoyishtaligiga rahna soladi. Mavjud oqimni izdan chiqaradi. Hikoyalardagi Devona bilan it, Begona bilan journalist obrazlari go‘yo egizakka o‘xshaydi. Metaforikligi jihatidan to‘rtala obraz ham o‘z manzil-makonida “olami kabir”ni ifodalaydi. Ammo bu olamlarning ikkitasi (Devona va it) o‘tmish, boshqasi esa hozir qiyofasiga ega. Mana shu ikki zamon va ikki siyratning qorishuvi metaforik model originalligini, o‘ziga xos hikoya xronotopini, estetik idealning umuminsoniy, shu bilan birga zamonaviyligini ta’min etadi” [4:223-224].

E’tiborimizni tortgan jihat shuki, syujetda badiiy metamorfozaning tanlanishi. Hikoyadagi ziyoli, kasb-korga ega, jamiyatning faol a’zosi bo‘lgan shaxs nega evrilishga yuz burdi? Aslida, shakl o‘zgarsa-da, mohiyat o‘zgarmaydi. Yer yuzidagi har bir mavjudlik Allohning tajallisi ekan, shu aks alal-oqibat asliyatga ergashadi, qaytadi, u bilan birlashadi. Tasavvufga ko‘ra shunday. Bu qaytish, albatta, o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Buning uchun nafs barham topishi, yo‘l belgilanishi, ma’rifat hosil etilishi kerak. Bu bosqichlar esa pir-murshidlik an’anasida qaror topadi. Komillik darajasiga erishish uchun bu yo‘lni o‘zidan avval bosib o‘tgan pirdan maslak istaladi. Go‘yo “Lison ut-tayr”dagi qushlar ulug‘ visolga yetishish uchun simurg‘ni qidirib, yakunida o‘zlari simurg‘ga aylanganlaridek. Buyuk visolga oshiqalar “tolibi sodiq”qa evriladilar, bu yo‘lda sobit bo‘ladilar: go‘yo hikoya epigrafida keltirilgani kabi: “...Shayx u go‘zalning jamolini ko‘rish umidida yor ko‘chasidagi itlar orasiga qo‘shildi” [3:342]. Xullas, Qalbdagi Ishq va Iymon, pirning ko‘rsatmalarigina asl mohiyatni tushunishga yo‘l ochadi.

Asarning o‘ziga xos vazmin ohangi – ritmini ramziylik foni ta’minlaydi. Voqealarning sirli, birin-ketin, sabab-oqibat dialektikasida yuz berishi, badiiy vaqt uzluksizligi va maromini belgilaydi. Hikoya zamoni real va irreal tushunchalarni birlashtirib turuvchi cheksiz, subyektiv vaqtdan iborat. Itning musibatli uvlashi tashlandiq makon bilan uyg‘un. Har ikki belgida ham ojizlik, har qanday hashamat

va dabdabadan holi azaliy haqiqatlar mavjud. Inson Haqqa yetishishi uchun shakl va makon chegara bo‘la olmaydi, vaqt esa bu yetishuvni ta‘minlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar. Frans Kafka va Nazar Eshonqul asarlari qiyosiy o‘rganilib, tahlil etilganda har ikki yozuvchining asardan ko‘zlagan maqsadi, “men”i, badiiy uslubi va mahorati yuzaga chiqadi. Bu kabi xususiyatlar esa jahon va o‘zbek modern nasri haqidagi nazariy masalalarning dalillanishiga xizmat qiladi. Sharq va G‘arb adabiyoti namunalari umumiyliklashishi, aks-sado berishi jarayonlarini yaqqol ko‘rsatib beradi. Jumladan, jahon adabiyotining o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lgan ekzistensializm adabiyotga yolg‘iz inson qiyofasini olib kirdi. Absurd asarlarning ba‘zilarida yolg‘iz insonlarni qaysi sababga ko‘ra “jamiyat kuchi va insoniyat umidi” sifatida ko‘rsatib berildi? Ulardan biri “...insonlarni zamonaviy sivilizatsiya (taraqqiyot)ga birlashtiruvchi mexanik xarakter, insonlar hayotini yutib yuboruvchi bahaybat davlat mexanizmlarining tashkil topishi. Zamonaviy byurokratik mexanizm, ayniqsa, uning so‘nggi shakli bo‘lgan totalitar hukumat tiriklikdan mahrumdir. Individuallikning umumiy bosim ostida qolib ketishi, shaxsning sinishi, unga begona bo‘lgan mavjudlikning singdirilishi oqibatida shaxs darajasidagi inson jamiyat mashinasining tanasiga aylanib qolayapti” [6:174] Mazkur jarayonlar esa barcha xalqlar adabiyotiga birdek ta‘sir ko‘rsatdi, albatta. Ya‘ni adabiyotda umr bo‘yi o‘zi ishongan e‘tiqodining yolg‘on ekanini bilgan, yolg‘iz va chorasiz qolgan absurd qahramon qiyofalari birin-ketin bo‘y ko‘rsata boshladi

Yuqoridagi metamorfoza motivi haqidagi fikrlarimiz shu adabiy usul va obrazning badiiy-ma‘naviy qirrasini haqidagi xulosalarga daxl etadi. Hikoyada boshqa bir ma‘no ham borki, bu inson erki masalasi. Asardagi quyidagi izohga e‘tibor qilaylik: “Ko‘zlarimni ochganimda uvillash yo‘qolar, yumib olishim bilan qulog‘im tagida paydo bo‘lar, meni o‘z ohanggiga olib kirib ketardi. Uvillashda xo‘rlik va haqorat to‘la edi. Mahkumlik va mute‘lik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo‘rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi” [3:357] Nazar Eshonqul asarlarining bosh mavzusi bo‘lgan erkinlik, ozodlik ushbu asarda ham yetakchilik qiladi. G‘arb adabiyotining eng sevimli mavzularidan biri bo‘lgan shaxs ozodligi, uning jisman,

fikran erkinligi masalasi ushbu hikoyaning yana bir ma'noviy qatlamini ko'rsatadi. Hikoyadagi metamorfozik tasvir bu erkinlikdan mosuvo inson fojiasini ham tasvirlaydi. Demak, matndagi metamorfoza bir paytning o'zida ikkita: ham diniy-tasavvufiy, ham ijtimoiy-falsafiy g'oyani tashishga xizmat qilmoqda. Buning ortidan asarga tegishli kitobxon vaqti (idrok vaqti) ikki baravar uzayadi, kengayadi. Har ikki hikoyada Inson borlig'ining deformatsiyalari badiiy metamorfoza asosida ko'rsatib berilgan.

Xulosa. Jahon va o'zbek adabiyoti nasrining ko'zga ko'ringan vakillari ijodini qiyosiy, psixologik tahlil etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Olingan natijalar esa jahon adabiyotshunosligida ham o'z aksini topadi. Badiiy asarni insoniyat tafakkurining umumiy mulki, san'at asari sifatidagi qarashlarni mustahkamlaydi. Frans Kafka va Nazar Eshonqul ijodida adabiy ta'sir jarayoni ham yuqoridagi fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo", Kamyuning "Begona" romanlari bilan Kafka va Nazar Eshonqul romanlari, hikoyalari badiiyatida seziladigan adabiy ta'sirlanish nafaqat ular ijodining umumiy xususiyatlarini, balki farqli jihatlarini ham ifodalaydi. Umuman olganda badiiy inshoot bo'lmish asarning har bir uzvi inja va, ayni paytda, mustahkam, tasodifiy bo'lmagan aloqalardan iborat. Ularni umumdunyo adabiyoti namunalari sifatida yaxlit o'rganish asar badiiyatini teranroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 288 b.
2. Bachelard. Launtreamont. Paris, 1968. – 167 p.
3. Eshonqul N. Saylanma: I tom. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 512 b.
4. Jo'raqulov U. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – 356 b.

5. Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida):Filol.fanlari.fals.dokt...diss.–Toshkent, 2023. – 127 b.
6. Borev Yu. Ekzistensializm: absurd dunyosida yolg‘iz inson. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2011 yil, 5-son. 173-179-betlar.
7. Якобсон Р. Работы по поэтике. - М.: Прогресс, 1987. - 464 с.
8. www.ziyouz.com
9. Eshonqul N. Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi. Roman . – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018.
10. Eshonqul N. Mendan “men”gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 512 b.
11. Король З.А. Своеобразие художественного пространства и времени в романах Франца Кафка. дисс. канд.фил.наук. <https://www.dissercat.com>